

CHOLG'ULAR SULTONI – TANBUR



Rifatilla Qosimov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'at instituti professori

Annotatsiya: Mazkur maqola Sharq xalqlarining musiqiy merosida alohida o'rin egallagan torli cholg'u asbobi – tanbura bag'ishlangan. Unda tanburning tuzilishi, ijrochilik xususiyatlari hamda an'anaviy musiqa madaniyatidagi o'rni yoritiladi. Muallif yozma manbalar va mashhur mualliflar asarlariga tayanib, tanbur sozining tarixi va rivojlanish bosqichlarini tavsiflaydi.

Maqolada tanbur sozining sozlanish xususiyatlari, uning maqom ijrosidagi o'rni, shuningdek, Buxoro-Samarqand, Toshkent-Farg'ona va Xorazm kabi mintaqaviy ijrochilik maktablari o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Alohida e'tibor O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatovning ijodi va ijrochilik maktabiga qaratilib, uning o'ziga xos ijro texnikasi, badiiy uslublari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek milliy musiqa san'ati, maqom ijrochiligi, tanbur, sozanda, ustoz-shogird, musiqiy bezaklar.

Аннотация: Данная статья посвящена одному из струнных инструментов, который занимает особое место в музыкальном наследии народов Востока – танбуре. В статье рассматриваются конструктивные и исполнительские особенности инструмента, а также его роль в традиционной музыкальной культуре. Автор опирается на письменные источники и труды выдающихся авторов, описывая историю и этапы развития танбура.

В статье анализируются особенности строя танбура, его применение в исполнении макамов, а также различия между региональными школами исполнения – Бухара-Самарканд, Ташкент-Фергана и Хорезм. Особое внимание уделено творчеству и исполнительской школе народного артиста Узбекистана, профессора Тургуна Алиматова – его уникальной технике исполнения.

Ключевые слова: узбекское национальное музыкальное искусство, исполнительство макома, танбур, исполнитель, наставник-ученик, мелизмы.

Abstract: This article is dedicated to one of the stringed instruments that holds a special place in the musical heritage of Eastern peoples – the tanbur. The article examines the structural and performance characteristics of the instrument, as well as its role in traditional musical culture. The author relies on written sources and the works of prominent scholars to describe the history and stages of development of the tanbur.

The article analyzes the tuning features of the tanbur, its use in the performance of maqoms, as well as the differences among regional performance schools – Bukhara-Samarkand, Tashkent-Fergana, and Khorezm. Particular attention is given to the work and performance school of the People's Artist of Uzbekistan, Professor Turgun Alimatov, highlighting his unique playing technique.

Keywords: Uzbek national musical art, maqom performance, tanbur, performer, master-apprentice, musical melismas.

Tanbur – manbalarda yozilishicha, yunoncha ikki soʻzdan iborat boʻlib, tan – yurak, dil; bur – tirnovchi, qitiqllovchi, yaʼni dilni qitiqllovchi degan maʼnolarni beradi.

Asrlar osha ota-bobolarimizdan bizning davrimizgacha yetib kelgan bir qator musiqiy cholgʻular orasida tanbur oʻzining sehirli, maftunkor, dillarga orom beruvchi sadosi, xush kayfiyat baxsh etuvchi qudratga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalarga murojaat etib tanburning nafaqat oʻzbek, tojik, uygʻur xalqlarida, shuningdek, qoʻshni mamlakatlar – Afgʻoniston, Eron, Turkiya, Shimoliy Hindiston hamda ayrim arab mamlakatlarida ham mavjud boʻlganidan voqif boʻlamiz. Ana shu mamlakatlarda tanburning turli shakllarda eramizdan avvalgi I asrlardanoq keng ishlatilib kelinganligini qadimiy yodgorliklar, turli arxeologik topilmalar, miniatyuralardagi tasvirlar hamda koʻpgina yozma manbalar tasdiqlamoqda.

Zamonasining ulugʻ mutafakkiri va olimi Abu Nasr Muhammad al-Farobiy oʻzining “Kitabul-musiqiy al-kabir” (“Musiqaga doir katta kitob”) asarida tanbur sozini oʻsha davrlarda, yaʼni X asrda, Xurosonli va Bagʻdodli kabi turlari mavjud boʻlganligi haqida maʼlumot bergan. Keyinchalik, XIV asrda Samarqandda, Amir Temur saroyida uzoq yillar davomida oʻzining benazir sanʼati bilan xizmat qilib dovuq qozongan sozanda Xoʻja Abdulqodir tanburning shirvoniy, turkiy turlari bilan bir qatorda “nay tanbur” deb nomlanuvchi kamoni turi ham mavjudligini eslatib oʻtgan edi. Mazkur cholgʻu hozirda “sato” deb nomlanadi.

Tanbur – uzun va yoʻgʻon dastasiga qalin pardalar bogʻlangan hamda yupqa yogʻoch qoplamali noksimonkosaxonasi ustidagi maxsus xarrakdanoʻtgan uch-toʻrt simi noxun bilan chertib chalinadigan cholgʻu hisoblanadi.

Tanbur cholgʻusining qadimiy turlaridagi torlar XVI asrga qadar ipakdan boʻlganligini XVII asr musiqashunos olimi Darvesh Ali Changiy oʻz risolasida bayon etgan. Uning taʼkidlashicha, mohir ijrochilar tanbur tovushining tembri yanada jozibador boʻlishi uchun kumush va mis simlardan foydalanishgan. Mazkur cholgʻu keyinchalik bizning davrimizdagi kabi koʻrinishiga kelgan. Bu tanbur sozining davrlar oʻtishi bilan yanada takomillashganligidan dalolat beradi.

Yirik musiqashunos olim Fayzullo Karomatlining taʼkidlashicha, Buxoroda yaqin kunlarga tanburning chor tor (toʻrt simli soz), aniqrogʻi, uch asosiy simidan birinchisi qoʻsha panjtor (besh simli soz), yaʼni uch asosiy simidan birinchi va uchinchi qoʻsha va shashtor (olti simli soz) yoki aniqrogʻi, birinchi uchlangan va uchinchi qoʻsha torli soz turlari ham mavjud boʻlgan.

Tanburning birinchi simida yoki qoʻsha torli uchlangan birinchi simida asosiy kuy chalinadi. Qolgan simlari aks sado beruvchidir. Sozlanishda, deyarli oʻrtadagi, ikkinchi sim xuddi shu tanburda chalinadigan asar, lad, yaʼni tovushqator asoslariga qarab oʻzgartiriladi.

Odatda ikki chet simlar, yaʼni birinchi va uchinchi simlar, bir-biriga teng baland-pastlikda, oʻrtadagi ikkinchi sim esa ularga nisbatan toʻrt diotanik parda (kvarta), besh parda (kvinta) yoki bir parda (sekunda) past sozlanadi. Bunday sozlanish turlari maqomlarni chalganda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanburning pardalaridagi baland-pastlik darajasini ikki xil (bas va skripka) kalitlarida taxminan shunday koʻrsatish mumkin.

Notalar skripka kalitida yozilganiga nisbatan tanburda bir oktava past eshitiladi.

Shashmaqomda tanbur turlicha – Buzruk, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlarida kvartaga, Rost maqomida kvintaga, Navo maqomlarida kvartaga, Rost maqomida kvintaga, Navo maqomida esa butun parda (katta sekunda)ga sozlanadi.

Ma'lumki, O'zbekistonda mumtoz musiqa, cholg'u va ashula ijrochilik uslubi asosan uch vohaga bo'linadi. Bular Buxoro – Samarqand, Farg'ona – Toshkent va Xorazm ijrochilik uslublaridir. Tanbur cholg'usi ijrochiligi uslubiga kelsak hozirgi paytda asosan Toshkent – Farg'ona va Buxoro – Samarqand maktablari bizga ma'lum. Xorazmda tanburda ijro etish keyinchalik ya'ni XVIII asrda Niyojxon Xo'ja tomonidan boshlanganligini ba'zi bir manbalar tasdiqlaydi.

Buxoro – Samarqand ijrochilik maktabi tanburni ushlash holati bilan farq qiladi. Buxoro uslubida tanbur dastasini chap qo'lning bosh barmoq ustiga qo'yib ijro etiladi. Tanbur kosasini esa o'ng qo'lga qo'yib, ko'krakka ko'tarib ijro etiladi. Bu vohada sozandalar asosan “gili gili” (milliy bezak, zarb)da ijro etadilar.

Buxoro va Samarqandda atoqli ustoz tanburchilar: Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyosAbdug'aniyev, Ma'rufjon Toshpo'latov, Fazliddin Shahobov, ShohnazarSohibov, Usta Toir; Xorazmda: Komil Xorazmiy, Xarrot Devon, Matyoqub Xarrotov, Matyusuf Xarrotov, Matpano Xudoyberganov; Toshkent – Farg'ona vohasida: Risqi Rajabiy, Maqsudxo'ja Yusupov, Asadqori Lutfullayev, Abdumut al-Abdullayev, Jo'rabek Saydaliyev, Turg'un Alimatov kabi o'ziga xos maktab va uslubga ega bo'lgan hassos sozandalar shular jumlasidandir.

Bular orasida ustoz sozanda Ma'rufjon Toshpo'latov ijrosidagi ko'pgina kuylarni Xamza nomidagi san'atshunoslik institutining musiqashunos olimi, professor Fayzullo Karomatli magnit tasmasiga yozib olgan va ushbu musiqiy namunalar mazkur institutning arxivida saqlanib kelmoqda.

Akademik Yunus Rajabiy “Shashmaqom”ningMushkilot (cholg'u) qismini notaga olishda Marufjon Toshpo'latov ijrosidan foydalangan.

Toshkent – Farg'ona ijrochilik uslubi Buxoro – Samarqand uslubidan avvalambor tanbur sozini ushlash holati va ijrodagi zarblari bilan farq qiladi. Toshkent – Farg'ona ijrochilik uslubida tanbur dastasini chap qo'lning bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq orasiga qo'yib ijro etiladi. Tanbur kosasini esa o'ng qo'lda ushlab, tizzaga qo'yib chalinadi.

Tanburni ijro etganda birinchi zarb tepadan pastga qarab chertiladi. Ushbu uslubga xos ijro etgan sozandalar: Rizqi Rajabiy ijro uslubida chap qo'l barmoqlarini pardada titratib, chapani uslubda, ya'ni kuyni sur'atini ba'zi joyda orqaga tortib, ba'zi joylarda sur'atini tezlashtirib ijro etish kuzatiladi. Sozanda Jo'rabek Saidaliyev talqinida “nola”, “kashish”, mayda notalarda esa ko'proq “gili-gili” kabi an'anaviy ijrochilikda qo'llaniladigan bezak (zarb)larni uchratish mumkin. Asadqori Lutfullayev ijro uslubining o'ziga xosligi asosan “pirrang” zarbini nihoyatda ravon va yoqimli ifoda etilishidadir. Bunday uslub ijroning yanada jozibali chiqishiga sabab bo'ladi.

Betakror uslub sohibi Turg'un Alimatovni tanbur cholg'u ijrochiligida alohida maktab yaratganligi barchaga ma'lum. Uning ijro uslubida noxunni pastdan yuqoriga chertish alohida ajralib turadi. Bunday amal tanburdan chiqayotgan tovushning yanada mayin, yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. Turg'un Alimatov tanbur pardasini ezib ijro etganda undan yangragan “nola” va “qochirim”lar hech bir sozandaning ijro uslubiga o'xshamaydi.

Hozirgi davrda esa respublikamizning barcha vohalarida Turg'un Alimatov ijro uslubi va maktabi tanburchi sozandalarni o'ziga jalb etmoqda.

An'anaviy ijrochilikda musiqiy asarning ta'sirchanligi inson ruhiyatiga xush kayfiyat baxsh etishi, ma'naviy ozuqa berishi, kuyning milliy ijro bezaklari bilan to'laqonli ifoda etilishidadir. Buning uchun sozanda yuksak musiqiy did va mahoratga ega bo'lishi lozim.

Jumladan, tanbur sozi ijrochiligida keng qo'llaniladigan turli nola, qochirim, zarb kabi musiqiy bezaklar asar ijrosidagi yetuklikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda tanbur sozi ijrochiligida yorqin yulduz bo'lib, o'zining qalb qo'ri, sehrli barmoqlari bilan chertgan sozidan hush navo taratib, yuraklarni zarb etgan "tillo noxun" sohibi, O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatovni o'zbek milliy musiqa ijrochiligida betakror uslub (maktab) yaratgan san'at darg'alaridan biri desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Turg'un Alimatov 1921-yil 20-yanvarda Toshkent viloyatining Chuvalachi qishlog'ida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Bolalik chog'idanoq qalbida musiqaga ishtiyoq va havas uyg'onishiga padari buzrukvari Alimat otaning dutor cholg'usini nihoyatda yoqimli ijro etishi sabab bo'ldi. Turg'un o'rta maktabning 4-5-sinflarida saboq olayotgan paytlarida musiqa cholg'ularidan ilk bor dutor chalishni o'rgana boshladi. Chunki ular xonadonida ham ko'plab xonadonlarda bo'lgani kabi dutor doimo uyning to'rida osig'liq turardi. 1930-yillarda xalq orasida mashhur bo'lgan "Fabrika" nomli qo'shiq kuyi yosh Turg'unning o'rgangan birinchi musiqiy asari bo'ldi. O'sha kezlari radio to'lqinlari orqali muntazam yangragan "Jigarpora" kuyi bilan birga "Dilxiroj", "Munojot" kabi xalq kuylarini chalishni ham qunt bilan o'rgandi.

Yosh Turg'un maktabning 7-10-sinflarida o'qib yurgan kezlari musiqa to'garagi xonasida osig'liq turadigan tanbur, dutor, nay, g'ijjak kabi cholg'ularni ko'rib zavqlanardi. To'garak rahbari Halim aka yosh sozandaga yaxshi maslahatlar berdi. U "Hozircha qaysi sozga mehring tushgan bo'lsa o'rganib qo'yaver, keyinchalik qay birini tanlash ko'nglingga bog'liq. Bir necha cholg'uni chala bilish odamga zarar qilmaydi" deb, Turg'unga g'ijjak va tanbur kabi sozlardan dars berdi.

Texnikumda olgan saboqlari Turg'un Alimatov hayotida muhim rol o'ynadi. O'sha kezlari radiodan ko'pincha Yunus Rajabiy rahbarligidagi ansambl ijrosidagi kuy va qo'shiqlar yangrardi. Turg'un Alimatov bu turkum eshittirishlarni birortasini ham qoldirmasdan tinglar va g'oyibona o'rganardi. Mabodo kuylarni o'rganishda qiyinchilik tug'lsa darhol texnikum o'qituvchilariga murojaat qilar edi. Shu sababli musiqa merosimizda mavjud bo'lgan ko'plab asarlarni o'zlashtirishga erishdi.

Texnikumda o'qishni tugallash arafasida sozanda sifatida shakllanib dutor, g'ijjak hamda tanbur chalishning nozik sirlaridan voqif bo'ldi.

Turg'un Alimatov 1940-yillarda Toshkentdagi yosh tomoshabinlar teatriga ishga qabul qilindi. Bu yerda ansambl rahbari Mamadaziz Niyozov unga g'ijjakchi sozanda bo'lib ishlashni taklif etdi. Ansamblda birgina g'ijjakda emas, balki tanbur va dutorda ham vaqti-vaqti bilan kuylar ijro etishga to'g'ri kelardi. Chunki ishdagi ijodiy jarayon shuni talab etardi.

Shundan so'ng T. Alimatov bir yil mobaynida Muqimiy nomli musiqali drama teatrida sozandalik faoliyatini davom ettirdi. U teatrdagi faoliyatini juda ham samarali o'tganligini eslab shunday deydi: "Men o'ttiz yil radioda ishladim, bir yil Muqimiy teatrida. Lekin o'ttiz yil ichida, o'sha bir yilda olgan ma'naviy boylikni ololmadim. Chunki u kezlari teatrdagi zabardast san'atkorlar: To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Ohunjon qiziq, Xolxo'ja To'xtasinov kabi buyuk insonlar davrasida edim".

Ustozlar bilan bo'lgan jonli muloqot san'atning turli yo'nalishlaridan bahramand bo'lishda T. Alimatov faoliyatida muhim o'rin egalladi.

T. Alimatov radiokomitetda sozandalik qilgan kezlarda akademik Yunus Rajabiy rahbarligidagi maqom ansambli bilan Shashmaqom cholg'u-ashula turkumlari, Toshkent – Farg'ona maqom ashula yo'llari, vohalarga mansub yirik cholg'u yo'llari hamda zabardast bastakorlarning asarlarini munggardish (plastinka) gadarj etishda, radio musiqiy yozuvlar "oltin xazina"sidagi magnit tasmlariga tushirishda faol ishtirok etib, "tillo noxun" nomini olishga sazovor bo'ldi.

Turg'un Alimatov ijrochilik uslubining shakllanishida bir qator utozlarning san'ati muhim omil bo'lgan desak o'rinli bo'ladi. Rizqi Rajabiy, Jo'rabek Saydaliyev, Qayum Shomurodov, Asadqori Lutfullayev, Orif Qosimov, Mahmud Yunusov kabi ustoz sozandalar shular jumlasidandir.

Jo'rabek Saydaliyev ijrosidagi "Payravi asal", "Jigarpora", "Surnay Navosi" kabi kuylar T.Alimatov qalbida chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, undagi "yakka zarb"ga asoslangan ijro uslubi o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, J.Saydaliyev talqinida "nola", "kashish", mayda notalarda esa ko'proq "gili-gili" kabi an'anaviy ijrochilikda qo'llaniladigan bezaklarni uchratish mumkin.

Asadqori Lutfullayev ijro uslubining o'ziga xosligi asosan "pirrang" zarbini nihoyatda ravon va yoqimli ifoda etilishidadir. Bunday uslub ijroni yanada jozibali chiqishiga sabab bo'ldi.

Rizqi Rajabiy, Qayum Shomurodov kabi ustoz sozandalarning ijro uslublarida esa noxunni yuqoridan pastga chertish kuzatiladi.

T.Alimatov ustozlardan shu singari ijro amallarini qunt bilan o'rgandi. Ijrochilik sohasidagi ko'p yillik mehnat va izlanishlar undagi o'ziga xos uslubni yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi.

T.Alimatovning ijro uslubida noxunni pastdan yuqoriga qarata chertish alohida ajralib turadi. Bunday amal tanburdan chiqayotgan tovushni yanada mayin, yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. Bu borada T.Alimatov shunday deydi: "Tinglovchiga yakka noxun ham kerak. Lekin, orasida pirrang qo'shilsa yana ham chiroyliroq bo'ladi. Bir san'atga yana bir san'at qo'shilgan bo'ladi. Keyin bir usulda, bir noxunda yursa bir yoqlama bo'lib qoladi".

T.Alimatovo'z ijro uslubini shakllantirishi jarayonida musiqiy merosimiz namunalari orasidan turli sur'at va xususiyatdagi kuylarni tanlab olib, ularni me'yoriga yetkazib chalishni mashq qildi.

Mungli kuylarga chuqurroq "nola", "kashish", "molish", "rez", tez sur'atli quvnoq kuylarga "pirrang", "teskari zarb", "ufor zarb" va mayda zarblar ishlatib, musiqiy asarlarni yanada jozibali bo'lishiga erishdi.

T.Alimatov ijrochilik faoliyati davomida musiqiy merosimizda mavjud ko'plab asarlarni o'z ijro uslubida talqin etib, ularga yangidan hayot bag'ishladi. Bu kuylar hoh tanbur, hoh dutor, hohg'ijjak bo'lsin yagona ijro uslubiga asoslangan. Bunga "Navo", "Chorgoh I,II", "Eshvoy", "Segoh", "Nasri Segoh", "Ufori Segoh", "Samarqand Ushshog'i", "Girya", "Surnay Navosi", "Rohat", "Eshvoy Kurd", "Qo'shchinor", "Gulyoraxon va Bilakuzuk", "Jigarpora va Payravi asal", "Tanovar", "Nola", "Munojot I, II, III", "Nasrullo I, II,V", "Ajam", "Navro'zi Ajam", "Kuygay" (Y. Rajabiy), "Ey Sabo" (D.Zokirov), "Guluzorim", "Bozurgoniy" (H.A.Abdurasulov), "Yolg'iz" (T.Jalilov) kabi durdona musiqiy asarlar misol bo'la oladi.

O'zbekiston xalq hofizlari Hasan Rajabiy, Mahmud Tojiboyev, O'zbekiston xalq artisti, professor Toir Qo'ziyev, professor Abdulla Umarov, dotsent Abror Zufarov, sozandalar: Alisher Alimatov, Asror Aslonov, Shuhrat Nabiyev, Ibrohim Samadov, Adham Ismoilov, Shuhrat Razzoqov, O'ktam Rasulov, Muhammadjon Mamatqulov kabi zabardast ijrochilar shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida ustoz sifatida faoliyat yuritayotgan Toir Qo'ziyev, Abror Zufarov, O'ktam Rasulov, Muhammadjon Mamatqulov, R.M.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi "An'anaviy ijrochilik" bo'limi professori Abdulla Umarov, oliy toifali o'qituvchi Asror Aslonov kabi fidoiy san'at ahllari ustoz Turg'un Alimatov ijrochilik uslubini yosh iste'dodli sozandalarga o'rgatishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Karomatov F. O'zbek xalq musiqa merosidan, M30 – 44637 – 38.
2. Umarov A. Tanbur taronalari. Toshkent, 2004 y.
3. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002 y.
4. Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. Toshkent, 2007 y., "Fan".
5. T.Alimatov bilan bo'lgan suhbatdan.